



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITASI RAISING BUYRUG‘I

2024-yil 26-noyabr

59-A-son

“Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-son Farmoniga asosan ichki nazorat tizimlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularning samaradorligini yanada oshirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-son Farmoni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ichki nazorat tizimi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularning samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun kollegial asosda “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi tuzilsin hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis N.Saydullayevga ichki audit xizmati vazifalarini bajarish yuklatilsin.

4. “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi ishchi organi ichki audit xizmati hisoblanishi e‘tiborga olinsin va quyidagilar “Xavflarni boshqarish” qo‘mitalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

ichki audit xizmatlari tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko‘rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog‘liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro‘yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta‘minlash;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta‘minlash hamda aniqlangan xavflarni bartaraf etish;

xavflarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha ichki audit xizmatlari

faoliyatini samarali tashkil etish;

har chorak yakuni bo'yicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni atroflicha muhokama qilish;

normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etish, tegishli normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

xavflarning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Rais



S. Toshboyev

CJM4656

CJM4656

CJM4656

O'zbekiston Respublikasi Din
ishlari bo'yicha qo'mitasining
2024-yil 26-noyabrdagi
59-A- sonli buyrug'iga ilova

**«XAVFLARNI BOSHQARISH» QO'MITASI
TARKIBI**

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1.	S.Toshboyev	Rais – qo'mita raisi;
2.	D.Maxsudov	Raisning birinchi o'rinbosari – qo'mita a'zosi;
3.	D.Mamatkulov	Rais o'rinbosari – qo'mita a'zosi;
4.	A.Agzamov	Strategik rejalashtirish metodologiya, ijro intizomi va murojaatlar bo'limi boshlig'i – qo'mita a'zosi;
5.	Sh.Kulmatov	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i – qo'mita a'zosi;
6.	B.Juroyev	Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i – qo'mita a'zosi;
7.	N.Saydullayev	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassisi – qo'mita ishchi organi;

Izoh. Qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi. Lozim bo'lganda tegishli tarkibiy bo'lim mas'ul xodimlari jalb qilinishi mumkin